



UDK:81'373.7:811.133.1

Laylo DOLIYEVA,
SamDCHTI katta o'qituvchisi, PhD
E-mail: ldoliyeva@mail.ru

SamDCHTI professori N.Suvonova taqrizi asosida

YIG'I VA KULGINING NOVERBAL FRAZELOGIYADAGI OPPOZITSIYASI (FRANSUZ TILI MATERIALIDA)

Аннотация

Ushbu maqolada qayg'u va quvonch zidligiga asoslangan yig'i va kulgi emotsional oppozitsiyasi o'z graduonimik darajasiga ko'ra holati tahlil qilingan. Shuningdek, fransuzcha emotiv frazeologik birliklar misolida kulgi ekstralingvistik holatning eng yuqori, o'rta va boshlang'ich bosqichlarini o'rganilgan. Ya'ni, eng yuqori darajada o'ta samimiy kulgi holati, o'rta darajada jilmayish holati va boshlang'ich darajada esa kulimsirash holati o'zaro farqlanadi. Biroq, yig'i ekstralingvistik holatining faqat eng yuqori va boshlang'ich bosqichlari ko'zga tashlanishi tushuntirilgan.

Kalit so'zlar: Noverbal frazeologik birliklar, emotsiya, oppozitsiya, graduonimik daraja.

ОППОЗИЦИИ ПЛАЧА И СМЕХА В НЕВЕРБАЛЬНОЙ ФРАЗЕОЛОГИИ (на французском материале)

Аннотация

В данной статье анализируется условие эмоциональной оппозиции плача и смеха, основанное на оппозиции печали и радости, по ее градуонимическому уровню. Также на примере французских emotивных фразеологизмов изучены высшая, средняя и начальная стадии экстралингвистического состояния смеха. В частности взаимно дифференцируются состояние наиболее искреннего смеха на высшем уровне, состояние улыбки на среднем уровне и состояние полуулыбки на начальном уровне. Однако поясняется, что примечательными являются лишь высшие и начальные стадии экстралингвистического состояния плача.

Ключевые слова: Невербальные фразеологизмы, эмоция, противопоставление, градуонимический уровень.

OPPOSITION OF CRYING AND LAUGHTER IN NONVERBAL PHRASEOLOGY (BASED ON THE FRENCH LANGUAGE MATERIAL)

Annotation

In this article, the situation of the emotional opposition of crying and laughing based on the opposition of sadness and joy are analyzed according to their graduonymic level. Besides, in the example of French emotive phraseological units, the highest, medium and initial stages of the extralinguistic state of laughter were studied. It means that, at the highest level, the state of extremely sincere laughter, the state of smiling at the middle level, and the state of smiling at the initial level are mutually differentiated. However, it is explained that only the highest and initial stages of the extralinguistic state of the cry are noticeable.

Key words: Non-verbal phraseological units, emotion, opposition, graduonymic level.

Kirish. Noverbal muloqot insonlar o'rtasidagi eng qadimiy muloqot shakllaridan biri bo'lib, u til shakllanmasdan oldin paydo bo'lgan. Muloqot davomida noverbal muloqot o'zining dastlabki vazifalariga ko'ra ancha barqaror va samaradorligi bilan ajralib turadi. Binobarin, bunday muloqot to'g'ridan-to'g'ri qabul qilinadi va qabul qiluvchiga kuchli ta'sir ko'rsata oladi. Shuningdek, kishilar o'rtasidagi turli munosabat va his-tuyg'ularning eng nozik ottenkalari, ya'ni so'z bilan ifodalashga noqulay holatlar ham aynan shu noverbal muloqot vositalari orqali yetkazilishi har tomonlama ancha samarali sanaladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlil. Noverbal muloqot masalalari tadqiqi 1886-yilda P.Montegatssaning yuz ifodalari alifbosini tasvirolovchi «Физиогномия и выражение чувств» ("Fiziognomiya va hissiyotlar ifodasi") [1] nomli klassik asarlari orqali asos solingan. Biroq, tana a'zolari tilini ma'lum bir maqsadli tarzda o'rganish XX-asrning 60-yillarida boshlangan [2] va noverbal muloqot asoslari Avstraliyalik olim Allan Piz tomonidan asos solingan dunyodagi eng yirik markaz "Piz Trayning Corporation" markazida keng qamrovli tarzda tadqiq etilgan [3]. Hozirgi kunga kelib noverbal muloqotning vizual turlaridan tortib, to prosodik turlariga qadar, hatto kiyim-kechak, soch turmagi, atrofimizdagi narsalar, biz uchun odatiy bo'lgan harakatlarning barchasi "noverbal muloqot" shakllari hisoblanib, hanuz tilshunos, psixolog, madaniyatshunos, faylasuf, sotsiolog va boshqa ko'plab tadqiqotchilarning qiziqishlariga sabab bo'lmoqda. Chunonchi, professor Sh. Safarov ta'kidlaganidek, biz birovga salom berar ekanmiz odob nuqtayi nazaridan qo'lni ko'ksimizga qo'yib, boshni sal egib, ta'zimga yaqin harakat qilib

salomlashamiz. Bu - o'zbek urf-odati. Shunda bu nolisoniy, mohiyatan etnik-etnografik tamoyillar bilan birga, albatta, «Assalomu-alaykum!» lisoniy iborasi ham ishlatilishi zarur. [4] Shunday ekan, noverbal va verbal muloqot o'zaro bir-birini to'ldirib kelishi va muloqotni yanada tushunarli, hamda ifodali tarzda qabul qilinishiga yordam beradi. Noverbal muloqot vositalaridan biri bo'lgan ekstralingvistik vositalar inson his tuyg'ularini ifoda etishda asosiy o'rin tutishi ko'zga tashlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ekstralingvistika - bu nutqdagi pauza (sukunat), shuningdek, yig'i, yo'tal, xo'rsinish, kulish, nafas olish kabilarni o'z ichiga oladi [5]. Noverbal muloqotning bunday ekstralingvisik vositalari o'ziga xos emotsional holatlarni ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, sukunat xotirjamlikni, turli xil nafas olish hollari hayajon va qo'rquvni, xo'rsinish tushkunlik va g'amginlikni, kulish esa xursandchilikni aks ettiradi. Muloqot jarayonidagi aynan kulgi va yig'i oppozitsiyasi ichki his-tuyg'ularni amaliy jihatdan kuchli tarzda ifodalovchi ekstralingvistik vositalar hisoblanadi. Fransuz tilidagi emotive frazeologik birliklar (keyinchalik EFBlar) orasida ham ushbu vaziyatga aynan mos keladigan frazeologizmlarni ko'plab uchratish mumkin. Ular asosan pleurer (yig'lamoq) va rire (kulmoq) komponentlari orqali hosil bo'lgan EFBlarda ko'zga tashlanadi. Ularga yordamchi leksemalar sifatida ko'z yoshlari ma'nosidagi les larmes va les pleurs hamda kulgi, tabassum ma'nosidagi le rire va le sourire leksemalari yig'i va kulgi ekstralingvistik holatlarini tasvirlashga xizmat qiladi. Masalan, quyidagi jadvalda ularga xos verbal va nominal EFBlarni keltirib o'tamiz:

Yig'i va kulgi ekstralingvistik vositalari orqali hosil bo'lgan verbal va nominal EFBlar

Fransuzcha Fblar	O'zbekcha talqini
Yig'i ekstralingvistik vositasi orqali hosil bo'lgan EFBlar:	
Verbal EFBlar :	
pleurer à chaudes larmes	-qon yig'lamoq;
pleurer à gros bouillons	-alam (ukinch) bilan yig'lamoq;
pleurer comme une fontaine	-ko'z yoshlari quyilib kelmoq;
pleurer comme une Madeleine	-tinmay ko'z yosh to'kmoq;
pleurer comme une vache/ un veau	-uvvos solib yig'lamoq;
pleurer misère	-nochorlikdan fig'oni falakka chiqmoq;
fondre en pleurs	-ko'z yoshlari quyilib kelmoq;
être tout en pleurs	-ho'ng-ho'ng yig'lamoq.
avoir envie de pleurer	-yig'lagisi kelmoq;
pleurer tout son soûl	-to'yib yig'lamoq;
se retenir pour ne pas pleurer	-yig'lab yubormaslik uchun o'zini tutib turmoq;
tantôt pleurer, tantôt rire	-bir yig'lamoq, bir kulmoq;
pleurer d'attendrissement	-ko'zdan yosh chiqqunday bo'lib ko'ngli bo'shab ketmoq;
verser des larmes	-ko'z yosh tukmoq;
être au bord des larmes	-yig'lamoqdan beri bo'lmoq;
avoir toujours la larme à l'oeil.	-ko'z yoshi tayyor turmoq.
Nominal EFBlar :	
des larmes d'attendrissement	-mehr ko'z yoshlari;
des yeux noyés de pleurs	-yig'idan yoshga to'lgan ko'zlar;
larmes de crocodile.	-soxta ko'z yoshlar.
Adverbal EFBlar :	
à faire pleurer	-odamni yig' isini keltirguday;
à pleurer	-yig'laguday.
Kulgi ekstralingvistik vositasi orqali hosil bo'lgan EFBlar:	
Verbal EFBlar :	
rire à gorge déployée	-xandon otib kulmoq;
rire à ventre débouffonné	-qorini ushlab kulmoq;
rire aux anges	-xursandligidan jo'shib kulmoq;
rire comme un bossu	-ovozining boricha kulmoq;
rire comme un cul	-ahmoqlarcha kulmoq;
rire comme une baleine	-og'izni katta ochib kulmoq;
rire de bon (de tout son) cœur	-miriqib kulmoq;
pouffer de rire	-xo-xolab kulib yubormoq;
éclater de rire	-xoxolab kulmoq;
être plié de rire	-kulaverib ichagi uzilmoq;
rire sans retenue	-to'xtovsiz kulmoq;
rire aux larmes	-ko'zdan yosh chiqquncha kulmoq;
sourire jusqu'aux oreilles	-og'zi qulog'ida bo'lmoq.
Nominal EFBlar :	
un rire moqueur	-masxaraomiz kulgi;
des rires nerveux	-asabiy kulgi;
un rire mauvais	-zaharxanda shodlik;
un sourire d'aise	-mamnunlikdan kulmoq;
un sourire amer	-achchiq kulgi;
un sourire méchant	-zaharxanda kulgi;
un sourire ment	-soxta kulgi;
un sourire angélique	-muloyim kulgi;
un sourire narquois	-istehzoli jilmayish;
un sourire niais	-ahmoqona iljayish;
un sourire pincé	-zo'rma-zo'raki kulgi;
un sourire de pitié	-takabburona iljayish;
un sourire supérieur	-takabburona jilmayish;
une velléité de sourire	-bilinar-bilinmas tabassum.

Tahlil va natijalar. Keltirilgan ushbu misollardan ko'rinib turibdiki, qayg'u va quvonch ziddigiga asoslangan yig'i va kulgi emotsional oppozitsiyasi o'z graduonimik darajasiga ko'ra uch xil holatda aks etadi. Fransuzcha EFBlar misolida kulgi ekstralingvistik holatning eng yuqori, o'rtacha va boshlang'ich bosqichlarini ajratish mumkin. Ya'ni, eng yuqori darajada o'ta samimiy kulgi holati, o'rta darajada jilmayish holati va boshlang'ich darajada esa kulimsirash holati o'zaro farqlanadi. Biroq, yig'i ekstralingvistik holatining faqat eng yuqori va boshlang'ich bosqichlari ko'zga tashlanadi, ya'ni eng yuqori darajadagi o'ta alamli yig'i va boshlang'ich darajadagi yig'lamsirash holati mavjud. Yig'ining o'rta darajasiga aynan mas keladigan fransuzcha EFBlar tahlil davomida uchramadi. Quyida ular bo'yicha keltirilgan misollarga e'tibor qilaylik:

o'ta samimiy kulgi : rire à gorge déployée - xandon otib kulmoq; être plié de rire - kulaverib ichagi uzilmoq; rire de bon cœur - miriqib kulmoq;


jilmayish : un sourire angélique -muloyim kulgi; un rire moqueur - masxaraomiz kulgi; un sourire ment - soxta kulgi;

kulimsirash: rire dans sa barbe - miyig'ida kulmoq; le sourire aux lèvres - nim tabassum; esquisser un sourire - kula boshlamoq; avec le sourire - tabassum bilan va hokazo;

o'ta alamli yig'i : pleurer à chaudes larmes - qon yig'lamoq; pleurer à gros bouillons - alam (ukinch) bilan yig'lamoq; être tout en pleurs - ho'ng-ho'ng yig'lamoq; pleurer comme une Madeleine - tinmay ko'z yosh to'kmoq;

yig'lamsirash: pleurer d'attendrissement - ko'zdan yosh chiqqunday bo'lib, ko'ngli bo'shab ketmoq; avoir envie de pleurer - yig'lagisi kelmoq; se retenir pour ne pas pleurer - yig'lab yubormaslik uchun o'zini tutib turmoq; à faire pleurer - odamni yig'isini keltirguday; à pleurer - yig'laguday.

Ushbu holatni ularning quyidagi qiyosiy tarzidagi oppozitsion manzarasi orqali yaqqolroq tasavvur qilish mumkin:



5-rasm. Yig'i va kulgining noverbal frazeologiyadagi oppozitsiyasi

Shuningdek, kulgi emotsiyasini ifodalovchi verbal EFBlar asosan xursandchilik emotsiyasidagi xandon otib kulish (rire à gorge déployée) holatini aks ettirsa, nominal EFBlar esa kishilar yuz emotsiyasining takabburli, iste'hzoli, masxarali va soxta kabi

turli xil salbiy holatlarini ifodalashga xizmat qiladi. Asosiy emotsiyalardan biri bo'lgan qayg'uni ifodalovchi yig'i ekstralingvistik vositasi orqali hosil bo'lgan verbal EFBlar asosan salbiy ma'noga ega bo'lgan uvvos solib yig'lash holatini, nominal

EFBlardan faqat birgina (des larmes d'attendrissement - mehr ko'z yoshlari;) EFB ijobiy emotiv ma'noni va soxtalik yoki ayyorlik holatini aks ettiradi (larmes de crocodile-soxta ko'z yoshlar).

Xulosa va takliflar. Noverbal emotiv FBlar turlicha his-tuyg'ularni aks ettirishi tabiiy jarayondir. Ular verbal muloqot bilan bevosita bog'liq holda qo'llaniladi. Lingvistik vositalar bilan

bir qatorda muloqotning og'zaki bo'lmagan tomonlarini to'g'ri bilish boshqa madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish imkonini beradi. Axborotni yetkazish qobiliyatiga ko'ra, noverbal muloqot vositalari verbal muloqot vositalaridan ustunlikka ega emas, ammo ular qo'shimcha ma'lumotni yetkazish uchun ajoyib vosita bo'lib, ko'pincha butun xabarni tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Монтегасса П. Физиогномия и выражение чувств. –Москва: Профит Стайл, 2011. -204с. <https://iknigi.net/avtor-paolo-mantegacca/80841-fiziognomika-i-vyrazhenie-chuvstv-paolo-mantegacca.html>
2. Фаст Дж. Язык тела. Пер. с англ., М., 1998. <https://avidreaders.ru/download/yazyk-tela.html> pdf, Hall E. The Silent Language. - New York: Anchor Books, 1959. -212 p.
3. Аллан Пиз / <https://trenerbiz.ru/biznes-trenery/alan-piz>
4. Сафаров Ш., Тоирова Г., Нутқнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари: Ўқув қўлланма. - Самарқанд, СамДЧТИ нашри, 2007. – Б. 5.
5. Poyatos F. Language and nonverbal systems in the structure of face-to-face interaction / Language & Communication. Volume 3, Issue 2, 1983, -P. 129-140 <https://www.sciencedirect.com/science/article>
6. Сувонова Н.Н., Долиева Л.Б. Французча ономотопик феъллар иштирокидаги ибораларда инсон руҳияти тасвири // Ўзбекистонда хорижий тиллар. - 2020. - № 2 (31). - Б. 65–79.
7. Ashurov Sh., Suvonova N. Linguistic, Psychological and Theological Interpretation of “White” Colour (in the example of the French and Uzbek languages) // Journal of Positive School Psychology 2022, Vol.6, No.4. 9550 – 9560.
8. Doliyeva L.B. Somatik frazeologizmlarga xos psixofiziologik faktorlar emotiv tasvir obyektlari sifatida (fransuz tili materialida) // “Til, ta’lim, tarjima xalqaro jurnali”. – Toshkent, 2022. – 3 son, 1 jild. – Б. 39-54
9. Dolieva L.B. Neutral Emotions in French Phraseological Units // American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education, Volume 02, Issue- 05, 2024. –P. 130-132. (ISSN (E): 2993-2769, Impact Factor: SJIF: 7.759)